



## Axborot havfsizligi xalqimizning extiyoji va davlatimizning zarurati

**Sotivoldiyeva Dilfuza Odilovna**

Namangan davlat universiteti

Fizika-matematika fakulteti Tyutori

**D.Sotivoldiyeva**

Namangan davlat universiteti

Fizika-matematika fakulteti tyutori

**Annotatsiya:** Maqolada zamonaviy jamiyatda axborot xavfsizligining ahamiyati, uning milliy va davlat xavfsizligi uchun tutgan oʻrni hamda yosh avlodni axborot tahdidlaridan himoya qilish masalalari yoritilgan. Muallif internet va zamonaviy texnologiyalarning ijobiy hamda salbiy jihatlarini tahlil qiladi, ularning yoshlar tarbiyasiga taʼsirini baholaydi. Shuningdek, axborot xavfsizligini taʼminlash boʻyicha mamlakatimizda qabul qilingan qonunlar, davlat siyosati va amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar haqida fikr yuritiladi. Kiberjinoyatlar, ularning oldini olish va fuqarolarning bu boradagi masʼuliyati maqolada keng yoritilgan.

**Kalit soʻzlar:** Axborot xavfsizligi, internet tahdidlari, kiberjinoyat, davlat xavfsizligi, yoshlar tarbiyasi, milliy mentalitet, axborot texnologiyalari, kiberxavfsizlik, shaxsiy maʼlumotlar, axborot huquqi.



Bugungi kunda dunyo va undagi xayotning taraqqiy etishi butun dunyoni qamrab olgan jamiyatlarni, ularning ijtimoiy hayotini ham rivojlantirib yubormoqda. Bir zamonlar qo'l mexnati orqali menat qilish darajasi ustun bo'lgan bo'lsa, bugun aksincha texnika asri sifatida barcha insoniyatga ommalashdi. Globallashuv ya'ni ommalashuvga aylanib ulguragan internet tarmog'i shunday katta va kuchli vositaga aylandiki, uning tezligiga chegara qo'yib bo'lmaydi. Ushbu internet tarmoqlari inson uchun naqadar foydali bo'lsa shunchalik zararli hamdir. Chunki taraqqiy topgan bunday pallada ahborotlarni cheklab qo'yishni imkoni kam, bizga va kelgusi avlodlarmizga o'zining ta'sirini ko'rsatib ulgurdi.

Tarbiyaviy jihatdan olib qarasak, internet ayniqsa, uning uyali aloqa vositalari orqali kengayayotgan tarafi kattalarga ehtiyoj deb olib qarasak, yoshlarimizni, xatto kichik yoshdagi bolaarimizni ham vaqtini o'tkazish vositasi bo'lib qolmoqda. Avallari kitobni ko'tarib hikoya o'qib yurgan bolalarimiz endilikda qo'lga telefon berib, yutub orqali multfilm ko'rmasa o'zini butun bir harhashasini ishga soladi. Oddiygina telefon va internetning balosi farzandlarimizni judayam erka, atrofga mexrsiz va shavqatsiz qilib tarbiyalab qo'ymoqda.

O'smirlarchi, oddiygina yo'lovchi sifatida avtobuslarga chiqsangiz hammaning qo'lida uyali aloqa vositasi, hamma shu internet orqali qaysidir saytda mashg'ul bo'layotgan bo'ladi. Bu esa yoshlar orasida tarbiyani, ma'naviyatning susayshiga olib kelmoqda, Telefon domiga sho'ng'igan yoshlarning aksariyati o'zidan kattaga joy ham berishmayapti, aksiga quloqlariga naushniklarni taqib olib, telefondan boshini ko'tarmay o'tirishadi. Bundan ko'rinib turibdiki, internet degan balo faqat aloqlarni bog'lashgagina hizmat qilmay, miliy mentalitetimizga ham bolta urmoqda. Shu boisdan bu havf va ochiq tahdiddir. Bunday ketish bir kuni ijobiy tomonlardan ko'ra salbiy taraflarni ham quloq ochishiga sabab bo'ladi.



Bugun biz yoshlarni, kelgusi avlodni imkon qadar ahborot tahdididan asrashimiz lozim. Bu ulkan mas'uliyat mamlakatimiz havfsizlik xizmatiga, davlat organlariga qat'iy chora tadbirlar tuzishni, yangi-yangi dasturlar yaratishni talabini qo'yadi. Ammo hamma narsani davlatimizga yuklab qo'yolmaymiz, biz ota-onalar, jamiyat, atrof -muxit bu axborot xurujiga qarshi birgalikda harakat qilishimiz darkor. Masalan: jamoat joylarida, transport vositalarida yurganda uyali aloqa orqali telefonlardan foydalanishni ta'qiq qo'yish ham samaralidir. Chunki bir paytning o'zida avtobusda hammaning bir paytda internetdan foydalanishi kuchli nurlanishni keltirib chiqaradi. Bu esa insonlar salomatligiga zarardir. Shuningdek farzandlarimiz uyali aloqa orqali turli tarmoqlardagi mantiqsiz o'yinlarni o'ynamoqchi bo'lganda uning qo'lga telefon emas, kitoblar, jurnallar ushlatish maqsadga muvofiq. Ammo o'smirlarimizda chindan ham foydali ma'lumotlar uchun ishlatishlarini o'rgansak, ularga ahborotlarni, saytlarni saralashni o'rgatishimiz, Bu haqda tushunchalar berish, bu qilmishlarning yomon oqibatlarini xayotiy misolar bilan tushuntirish kerak bo'ladi. Biz buni axborot havfsizligi deymiz.

Axborot havfsizligi nima? Axborot har qanday habar. U esa turli tarmoqlarga uzatiadi. Odamlar bu habarlarga ko'r- ko'rona ishonishadi.

Ahborot haxfsizligi deganda fuqarolar, davlat va jamiyatning muhim hayotiy manfaatlarini siyosiy sohada ichki va tashqi axborot tahdidlaridan himoya qilish bilan bog'liq kompleks muammolar tushuniladi. Oddiyroq tushuntirsak, internet maydonida tarqalayotgan axborotlar oqimini saralash va havfi ahborotlar va dasturlardan himoalanishdir. Bugungi kunda bunday ahborot havfsizligini saqllovchi maxsus davlat tashkilotlari, organlari mavjud bo'lsa bunday havfni bartaraf etib bo'lmayapti.

Bular esa o'z o'rnida davlatimizning havfsizligi, fuqorolarning tinchligi, ularning salomatligini asrashga doir vazifalarni talab etmoqda. Bunday talablarga keskin chora



tadbirlar tuzish, sohada tashqi va ichki tahdidlarga qarshi himoya dasturlari ishlab chiqish, kiberhavfsizlik tizimini yuksaltirishni ko'zda tutadi.

Axborot xavfsizligi nimalarni himoya qiladi va asraydi. Asosan insonning shahsiy malumotlaridan tortib, davlat tashkilotlari xujjatlarini, turli fondlar, ishga doir hujjatlar turlaridan iborat. Hozirda tarmoqlarda foydali deya tarqatilayotgan turli botlar, ahborotlarni boshqa bir insonlarga jo'natish orqali ularga juda havfli, yolg'on malumotlar -"viruslar" jo'natish orqali butun bir malumotlarni yo'q qilish yoki o'g'irlash mumkin. Bu esa inson uchun uning shahsiy malumotlaridan foydalanib, kiberjinoyatlarni sodir etish, biror bir kompaniya tarmog'iga virus jo'natish esa o'sha kompaniyani tanazzulga uchratishni ko'zda tutadi. Internet havfsizligi bugun mamlakatimizda talab darajasida emas. Shu bois biz faqatgina atrofimizdagilarga ogoglik va e'tiborli bo'lish, ahborotlarni saralashni, tekshiruv va ruxsatlarsiz kirib kelgan malumotlarni qabul qilmaslik, ochmaslik va begona insonlarning ham tel raqamlariga javob bermaslik, ularga ma'lumot bermasligimiz kerak bo'ladi.

O'zbekistonda milliy axborot xavfsizligi tizimi shakllangan bo'lishiga qaramasdan, hali hanuz bu sohada kadrlar yetishmasligi uchramoqda. Viloyatlarda ham bu sohada alohida tashkilotlar, ta'lim berish tizimlari tashkil etildi. Yangi qonunlar va maqsadli chora tadbirlar yo'lga qo'yilmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasining 2012 yil 12 dekabrda qabul qilingan "Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to'g'risida"gi qonunining 12-moddasida axborot xavfsizligini ta'minlash sohasidagi davlat siyosati quyidagicha ta'riflangan:

"Axborot xavfsizligini ta'minlash sohasidagi davlat siyosati axborot sohasidagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan bo'ladi hamda shaxs, jamiyat va davlatning axborot borasidagi xavfsizligini ta'minlash sohasida davlat hokimiyati va boshqaruv organlarining asosiy vazifalari hamda faoliyat yo'nalishlarini, shuningdek



fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, jamoat birlashmalari va boshqa nodavlat notijorat tashkilotlarining, fuqarolarning o'rni va ahamiyatini belgilaydi". Bundan tashqari mamlakatimizda bunday havfsizlikni o'rnatish maqsadida ma'lumotlar bo'yicha ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishda "Elektron raqamli imzo to'g'risida"gi, "Axborotlashtirish to'g'risida"gi, "Elektron tijorat to'g'risida"gi va "Elektron hujjat aylanishi to'g'risida"gi Qonunlar muhim normativ-huquqiy hujjatlar bo'lib xizmat qilmoqda. Axborot texnologiyalarining rivojlanishi jarayonida elektron shakldagi ma'lumotlar bo'yicha ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishda "Elektron raqamli imzo to'g'risida"gi, "Axborotlashtirish to'g'risida"gi, "Elektron tijorat to'g'risida"gi va "Elektron hujjat aylanishi to'g'risida"gi Qonunlar muhim normativ-huquqiy hujjatlar bo'lib xizmat qilmoqda. Vazirlar Mahkamasining "Elektron raqamli imzodan foydalanishning normativ-huquqiy bazasini takomillashtirish to'g'risida"gi Qarorlarini misol keltirish mumkin. Alohida ta'kidlash joizki,

Bugungi taraqqiyot mutaxassislardan o'z soxasida kuchli bo'lishni, malakali va izlanuvchan bo'lib, bu sohada havfsizlikni taminlash uchun yangicha dasturlarni ishlab chiqishni taqozo qilmoqda. Shu o'rinda internet orqali amalga oshirilayotgan jinoytlar haqida ham to'xtalib o'tmog'imiz lozim.

Kiberjinoyat bu [kompyuter](#) va [tarmoqning](#) birgalikdagi aloqasi ostida sodir etiluvchi jinoyat turi. Kompyuter jinoyat paytida maqsadli yo'naltirilgan qurol vazifasini bajarib beradi. Kiberjinoyat kimningdir xavfsizligi va moliyaviy saviyasiga zarar yetkazish maqsadida sodir etiladi. Oddiy tilda aytganda axborot havfsizligini bilmaydigan va ishonuvchan insonlarning afsus va nadomati. Ular bu jinoyatning qurboni bo'lmoqdalar.

Bolalarimizchi, ular ham turli reklamalardan ma'lum bo'lgan o'yinlarni o'ynab oqibatda o'zlariga, o'z oilalariga judayam og'ir zarur bermoqdalar. Hatto atrofdan "O'yin o'ynab katta pul yutqizib qo'yibdi va o'z joniga qasd qipti" -degan gaplarni eshitib



qolamiz. Bu esa afsuski haqiqat bo'lib chiqmoqda. Shu va shu kabi og'ir vaziyatlarga tushmaslik uchun odatda tajribali ustozlarning, ota-onalarimizning, kasb mutahassislarning tavsiyalariga amal qilish darkor. Bugun farzandlarimizni axborot havfsizligini ta'minlash maqsadida turli chaqiruvlar mavjud. Ularga amal qilsak va farzandlarimiz hayotiga tadbiq etsak ham tarbiyali, ham jamiyatda tahdidlarga ogoh bo'lgan insonni Vatanga tarbiyalagan bo'lamiz.

"Axborot – boylik, uni himoya qilish – burch!"

"Shaxsiy ma'lumotlaringiz – sizning qo'lingizda!"

"Kiberxavfsizlik – zamonaviy dunyoning qalqoni!"

"Ehtiyotsizlik – ma'lumotlaringiz yo'qolishiga sabab bo'lishi mumkin!"

"Begona havolalarga bosmang – xakerlar sizni kuzatmoqda!"

"Parolingiz kuchli bo'lsa, ma'lumotlaringiz xavfsiz bo'ladi!"

"Axborot xavfsizligi – har bir insonning mas'uliyati!" "Virtual dunyoda ehtiyot bo'ling – sizni firibgarlar kutmoqda!"

"Axborot – kuch! Uni noto'g'ri qo'llardan saqlang!"

Ushbu kabi ogohlik shiorlariga amal qilgan doimo ogoh bo'lishga, agar shubhali holat yuz bersa darrov Ichki ishlar hodimlariga murojaat qilish yoki yaqinlariga habar berish darkor. Turli saytlarda Feysbuk, telegram, vatsap ilovalarida ham o'z akkauntini yashirin havfsiz qilishning imkonidan foydalanish maqsadga muvofiq. Tinchlik, o'zimizning sog'lig'imiz, oilamizning, yurtimizning, farzandlarimizning tinchligi, havfsizligi hamma narsadan ustun. Tinchlik bebaho ne'mat, shunday ekan har doim ogoh



bo'laylik. O'zimizning , farzandlarimizning va kelgusi avlodlariga bugunimiz va ertangi kelajagimiz uchun jiddiy e'tiborli bo'laylik. Biz jaholatga faqat ma'rifat bilan javob bera olamiz. Zero ma'rifat va ma'naviyat kelajagimizning asosidir.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Axmedov A. "Axborot xavfsizligi va kiberxavfsizlik asoslari" – Toshkent: Fan va texnologiya, 2020.
2. Yo'ldoshev S. "Raqamli dunyoda axborot tahdidlari va ularning oldini olish" – Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2021.
3. Qosimov U. "Internet muhitida shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish" – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2019.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 21-fevraldagi \*\*\*"Kiberxavfsizlikni ta'minlash tizimini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"\*\*\*gi qarori.
5. O'zbekiston Respublikasi \*\*\*"Axborot xavfsizligi to'g'risida"\*\*\*gi qonuni (2022-yilgi tahriri).
6. O'zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligining "Axborot xavfsizligi strategiyasi – 2025" konsepsiyasi.
7. O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi huzuridagi Kiberxavfsizlik markazining axborot xavfsizligiga oid ilmiy-tahliliy materiallari.
8. Xalqaro Telekommunikatsiya Ittifoqi (ITU) hisobotlari: "Global Cybersecurity Index – 2023".
9. Zohidov R. "Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va ularning xavfsizlik jihatlari" – Samarqand: Zarafshon, 2022.